

## Til Va Nutqda Onomastik Leksik Birliklarning Qo‘Llanilishi

*Ibotova Munavvar Oybek qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Til lug‘at tizimining sistemaviy qurishilishi, yashashi va kengayishi jarayonida tizimi qonun qoidaga bo‘ysunishi masalalarini tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligi fanida o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlandi.

**Kalit so’zlar:** 8090-yillarda esa bu masala to‘la-to‘kis ijobjiy ham etildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi, Jumladan, o‘zbek tilshunosligida “sistema leksikologiyasi tezislari”, prof. Sh.Raxmatullayev tomonidan qaytadan yozilgan leksikologiya kursi.

H.Ne’matov, R.Rasulovlarning umumlashtiruvchi o‘quv qo‘llanmasi<sup>2</sup> o‘zbek tili sistem (tizim) leksikologiyasi shakllanganligini to‘la-to‘kis isbotladi; leksikaning tizimi tabiat muozarasiz o‘z-o‘zidan tushunarli holatga aylandi. Bunday umumlashtiruvchi ishlar keyingi leksikologik tadqiqotlar uchun bir yo‘llanma bo‘ldi. Leksikaning sistemaviy tabiatiga tayangan holda tadqiqotlar olib borish leksik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘la ochib berish imkoniyatini beradi.

Leksika tizimi qurilishining to‘la-to‘kis isbotlanishi leksikologik tadqiqotlar oldiga juda ko‘p yangi muammolarni ham qo‘ydi. Bu muammo va vazifalarning bir qismi sistemaviy leksikologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasida sanab o‘tilgan, bir qismi esa keyingi tadqiqotlarda ko‘tarildi. Ammo ularning kattagina bir qismi ilmiy adabiyotlarda haligacha o‘rtaga qo‘yilmagan. Shunday hali yechilmagan muammolardan biri leksikaning tizimi tabiat va unda onomasinonimlarning shu lug‘at tizimidagi o‘rnidir. Bu masalaga tilshunoslari 50-60-yillarda ko‘p murojaat qilgan edilar. Tilshunoslikda ikki tushuncha farqlanadi:

- 1) tilning asosiy lug‘at fondi (основной словарный фонд языка);
- 2) tilning lug‘at sostavi (словарный состав языка).

O‘tgan asrning o‘rtalaridagi tadqiqotlarda, chunonchi, A.I.Vizgalov, A.A.Reformatskiy va boshqalarning ishlarida atoqli nomlar tilning asosiy lug‘at fondiga kiritilmas edi. Ularning o‘rni bu tadqiqotlarda lug‘at tarkibida belgilanar edi. Lekin bu tadqiqotlar leksikaning sistemaviy tadqiqi alohida bir usul sifatida shakllanishidan ancha oldin bajarilgan edi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridagi tadqiqotlarda, chunonchi, A.I.Vizgalov, A.A.Reformatskiy va boshqalarning ishlarida atoqli nomlar tilning asosiy lug‘at fondiga kiritilmas edi. Ularning o‘rni bu tadqiqotlarda lug‘at tarkibida belgilanar edi. Lekin bu tadqiqotlar leksikaning sistemaviy tadqiqi alohida bir usul sifatida shakllanishidan ancha oldin bajarilgan edi.

Shunga qaramay, K.A.Levkovskaya ta’kidlaganidek, til lug‘at sostavida ham atoqli otlar o‘ziga xos alohida so‘zlar sifatida ajratilar edi. Leksikaning sistemaviy tadqiqotini tilshunoslikka boshlab bergen olmilardan biri A.A.Ufimsevadir. U atoqli otlarni til leksik sistemasini to‘ldiruvchi mikrosistemalardan biri sifatidan tan olinishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilshunosligida esa bu sog‘ada qilingan ishlar E.A.Begmatovning tadqiqotlarida atroficha tahlil etilgan. Bunda tadqiqotchilarning asosiy ishi atoqli otlarni leksik sistemadagi o‘rnini belgilashga emas, balki ularning leksik tizimidagi o‘ziga xos alohida bir tizimcha ekanligini isbotlashga qaratildi. Keyingi davr o‘zbek tilshunosligida ham olimlarning kattagina guruhining sa’y harakati bilan (jumladan, E.A.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, G’.Sattorov) atoqli otlarning til lug‘at tizimining alohida bir bo‘g‘ini ekanligi to‘lato‘kis isbotlandi.

<sup>1</sup> Buxoro viloyati Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

<sup>2</sup> Нематов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 127 б.



Jumladan, prof. E.Begmatov yozadi: “Tildagi turdosh ot va boshqa xil so‘zlar atoqli ot vazifasiga o‘tgach, turlituman shakliy hamda funksional o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, Azizjon, Azizbibi va Bo‘tabek, Bo‘taylor, Bo‘taqul, Bo‘taboy ismlarini ham semantik, ham shakliy jihatdan “aziz” va “bo‘ta” so‘zlariga teng deb bo‘ladimi?

Ism vazifasida qo‘llanuvchi so‘z onomastika ixtiyorida ba’zi qo‘shimchalar, yordamchi shakllar va boshqa elementlarni qabul qiladi. So‘zning ism sifatida funksional imkoniyatlari ham kengayadi. Masalan: Bo‘riboy, Bo‘rigul, Bo‘riniso, Bo‘rixon. . . kabi ismlarni tildagi turdosh ot bo‘ri so‘zining aynan o‘zi deb bo‘lmaydi. Ism sifatida qo‘llanuvchi bo‘ri aslida turdosh ot bo‘lgan bo‘ri (volk)dan yuzaga kelgan bo‘lsa ham, u endi atoqli ot sifatida o‘ziga xos semantik, nominativ va qunktsional belgilarga egadir. Xuddi shuningdek, Bobonor, Bozorgul, Jumamurod, Murodali singari qo‘shma ismlar ham antroponomlik doirasida yasalgan va atoqli otlarga xos leksemalardir. Darhaqiqat antroponomilar leksik sistema (tizim)ning bir tarkibiy qismi sifatida uning o‘zi ham ma’lum podsistema (tizimicha)lardan tashkil topadi. Jumladan, antroponomlarning o‘zi ham ism, ota ismi (otchestvo), familiya, laqab, taxallus kabi alohida guruhlarga birlashadi. Xuddi shuningdek, kishi nomlari guruhi o‘z navbatida erkaklar va ayollarga qo‘yiladigan nomlar to‘dasiga ajratiladi. Yuqorida qayd qilingan antroponomik birliklarning o‘ziga xos semantik, yasalish, tuzilish va uslubiy xususiyatlari mavjud. Bu til birliklarining rus tilshunos olimlari K.A.Levkovskaya va A.A.Ufimsevalar “Til lug‘at sostavidagi alohida grupper so‘zlar” yoki “Til leksik sistemasining ajralmas bo‘lagi” deb qayd qiladilar. Tilshunos E.Begmatov “antropoleksemalar yoki ismsso‘zlar” deb atashni taklif qiladi.

Aytilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, antroponomilar alohida o‘ziga xos semantik–uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lib, grammatik jihatdan ko‘plik ifodalay olmaydigan til sistemasida alohida tizim va tizimchalardan iborat bo‘lgan bu til birliklari umumiy lug‘at tizimining qaysi bo‘g‘inidan joy olishi, lison va nutq ixtilofida bu tizimcha qaysi bosqichga mansubligi muammosi hamon ochiq qolmoqda.

Vaholanki, “ulov” so‘zining birinchi qurshovida turgan ot, eshak, xachir, qo‘tos, tuya leksemalarining har biri ulovdan keyingi bosqich uchun markaziy leksema sifatida ro‘yobga chiqadi va o‘z atrofida yuzlab qurshov so‘zlarni birlashtiradi. Va bu qurshov so‘zlarni bilish har bir o‘zbek uchun shart emas. Jumladan, “biya” bilan “baytal” farqini hamma o‘zbek bilmaydi. Shu asosda biz dastlab qo‘ygan savolimizni boshqa ko‘rinishda ham qo‘yishimiz mumkin. Masalan, “ilonbosh”<sup>19</sup> yoki “kakra” so‘zi tili lug‘at boyligidan o‘rin oladimi? Har ikkala so‘z ham o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning katta qismiga notanishdir. Albatta, bu so‘zlar o‘zbek tilining keng, umumiste’mol so‘zları sirasidan o‘rin olmaydi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- Бегматов Э., Ҳусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари //Ўзбек тили ва адабиёти. -1992, 5-сон. –Б.21-28; Зинин С. Введение в русскую антропонимию. –Т.: Фан, 1972. – 174 с.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. –М.: Наука, 1973. – 365 с.; Чичагов В. К. Из истории русских имен, отчеств и фамилий. –М.: Учпедгиз, 1959. – 176 с.
- Сафарова Р Ўзбек тилида гипонимия: филол. фанл.номз ... дисс. автореф. –Т., 1987. –Б.19.
- Неъматов Ҳ., Расулов Р. Кўрсатилган асар. –Б.78-83.
- Илонбош – олабуғасимонлар туркумига мансуб, танаси чўзиқ, боши ясси, кўриниши илонга ўхшаб кетадиган балиқ [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. –Т., 2006. – Б.198].
- Какра – 1) кўпинча ғалла экинлари орасида ўсадиган кўп йиллик тахир, талҳа ўсимлик; 2) тахир, аччиқ [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. –Т., 2006. –Б.295].
- Mansurovna, Z. S., & Mahmudovich, T. M. (2023, May). PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING FEELINGS AND EMOTIONS. In *Integration Conference on Integration of*



*Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 140-143). <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1027>.

7. Mahmudovich, T. M., & G'affurovna, H. N. (2023, May). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 164-166).
8. Maxmudovich, T. M., & Asrorovna, E. S. (2023, May). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK OLAMI TASVIRI TAHLILI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 274-277). <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1067>.
9. Saidova, Z. K. (2023). PROBLEMS OF LINGUO-CULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 700-707.
10. Khudoiberdievna, S. Z. (2022, January). Classification of verbal phraseological units denoting the emotional state of a person. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 90-93).
11. Saidova, Z. (2022). СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ЛИЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ЗОНА ФРАЗЕОЛОГИЗМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
12. Saidova Zulfizar Khudoiberdievna Questioning techniques in teaching English // Достижения науки и образования. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/questioning-techniques-in-teaching-english>.
13. Zarifovna, R. N. . (2023). ENVIRONMENTAL EUPHEMISMS IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 51-53. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/961>
14. Ruziyeva, N. Z. (2023). EVFEMIK OLAM MANZARASIDA O'LIM KONSEPTINING AKS ETTIRILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 443–447. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/950>.
15. Askarovich, H. A. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6 (TITFL), 91–94.
16. Haydarov, A. (2020). Methodological features of graphic tools. *Middle European Scientific Bulletin*, 5.
17. Haydarov, A., & Jo'raqulova, G. (2012). Frazeologik iboralar tarjimasi xususida. Tilning leksik-semnatik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallari to'plami. T.: Muharrir, 10-13.

